

IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA KLASTER TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI

D. K. Mardonova

"Ohalik oltin bog'i mevasi" M.Ch.J

Kadrlar bo'limi boshlig'i

Annotatsiya

Maqolada klaster, klaster tizimining iqtisodiy ahamiyati, innovatsion samaradorlikka erishish masalalari ko'rib chiqildi va innovatsion samaradorlikni oshirish chora - tadbirlari va shu sohaga doir muammolarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: klaster, transport, logistika, strategiya, iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish, diversifikatsiya, raqobatbardoshlik, modernizatsiya, klaster texnologiyalari, innovatsion klasterlar, transport-logistika.

Аннотация:

В статье рассматриваются вопросы кластеризации, экономического значения кластерной системы, достижения инновационной эффективности, а также акцентируется внимание на мерах по повышению инновационной эффективности и проблемах в этой области.

Ключевые слова: кластер, транспорт, логистика, стратегия, экономика, услуги, диверсификация, конкурентоспособность, модернизация, кластерные технологии, инновационные кластеры, транспорт и логистика.

Annotation

The article discusses the issues of clustering, the economic importance of the cluster system, the achievement of innovation efficiency, and focuses on measures and challenges to innovation efficiency.

Keywords: cluster, transport, logistics, strategy, economy, services, diversification, competitiveness, modernization, cluster technologies, innovation clusters, transport and logistics.

"Klaster" atamasi frantsuzcha so'z bo'lib o'zbekcha tarjimai "panja", "bosh", "bog'lam", "guruh", "to'planish", "turg'un" ma'nolarini beradi. Shuningdek, "klaster" tanlanma tadqiqotlarning bir usuli sifatida ham ifodalanadi. "Klaster" nazariyasining asosi Alfred Marshallning XIX asr oxirida yozilgan "Iqtisodiyot printsiplari" nomli asarida (1890 yil) ixtisoslashgan tarmoq sohalarning alohida hududlarda uyg'unlashishi to'g'risidagi fikr-mulohazalari hisoblanadi. Uning ilmiy xulosalari bo'yicha ixtisoslashgan faoliyat yurituvchi sub'ektlarni hududiy uyg'unlashuvi: - malakaviy mehnat resurslarining borligi; - ta'minotchi va qo'shimcha sohalarning o'sishi; - har-xil firmalarni ishlab chiqarish jarayonining turli bo'g'inlariga ixtisoslashuvining mavjudligiga asoslanganligi. Klaster nazariyasining zamonaviy talqini XX asrning 80-yillarida to'laqonli shakllandi. M. Poter yirik raqobatbardosh kompaniyalar ma'lum hududlarda kontsentratsiyalashuvga moyilligini empirik jihatdan isbotlagan.

Raqobatbardosh kompaniya o'z atrofidagi xo'jalik sub'ektlariga qoniqarli ta'sir ko'rsatishi, o'z navbatida o'zaro bog'liq barcha hamkorlarning raqobatbardoshligini oshiruvchi muqobil muhit

yaratishini bayon etgan. Uning fikricha “Klaster bu hududiy (geografik) jihatdan bir-biriga qo'shni, o'zaro bog'langan, ma'lum sohada faoliyat ko'rsatuvchi, umumiy maqsad yo'lida bir-birini to'ldiruvchi kompaniya va u bilan bog'liq tashkilotlar guruhidir”. Raqobatbardosh kompaniya milliy iqtisodiyot sohasi raqobatbardoshligini shakllantiradi, raqobatbardosh soha esa o'z navbatida dunyo bozorida mamlakat raqobatbardoshligini ta'minlaydi va saqlab turadi. Ilmiy manbalarda keltirilishicha iqtisodiyot klasterlariga asosan uch xil yondashuv mavjud:

- uncha katta bo'lmagan hududda yirik korxonalar yoki kompaniya atrofida jamlangan xo'jalik sub'ektlari;
- tadqiqotdan to zahiralar ta'minoti, savdo va undan keyingi xizmat ko'rsatishgacha to'la-to'kis qamrab olingan, ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini birlashtirgan, ma'lum mahsulot yaratishda qatnashuvchi korxonalar va tashkilotlarning vertikal texnologik tizimidagi jamlanmasi;

soha klasteri.

Klaster yondashuvi dastlab sanoat ishlab chiqarishiga tatbiq qilingan va uning asoschilari Marshall va Yastremskiy, ammo Garvard biznes maktabi professori Maykl Porter mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirish uchun sanoat klasterlari g'oyasini ommalashtirgan olimlar bo'ldi. "Klaster paydo bo'lishining obyektiv shartlari M. Porter tomonidan ishlab chiqilgan taniqli "Raqobat rombigi" da umumlashtirildi. An'anaviy omillardan tashqari - raqobat muhiti, talab sharoitlari va qo'llabquvvatlovchi tarmoqlarning mavjudligi - ma'lum bir hududda malakali kadrlar, infratuzilma va kapital kabi ixtisoslashtirilgan omillar yaratilishi kerak. Ushbu ixtisoslashtirilgan omillarni yaratish uzoq va barqaror investitsiyalarni talab qiladi. Bu jarayon qiyin bo'lsada, klasterlar uchun raqobatdosh ustunlikni yaratadi.

Klaster (inglizcha, cluster) – muayyan yo'nalishda o'zlashtirilgan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasining o'zgaruvchan elementidir. Klaster - bitta sohaga birlashgan va bir – biri bilan uzviy aloqada bo'lgan korxonalar guruhidir. Yanada soddaroq qilib aytganda, masalan, u paxtachilikda chigit ekishdan to tayyor mahsulotgacha bo'lgan jarayonni yagona texnologik zanjirga birlashtiradigan tizimdir. Iqtisodiy klaster – ma'lum bir hududga (kompaniyalar, korporatsiyalar, universitetlar, banklar va boshqalar) qaratilgan bir-biriga bog'liq tashkilotlar guruhidir: mahsulotlar, tarkibiy qismlar va ixtisoslashtirilgan xizmatlar, etkazib beruvchilar, infratuzilma, tadqiqot institutlari, universitetlar va bir birini to'ldiradigan ayrim kompaniyalar va butun guruhning raqobatbardosh afzalliklarini oshiradigan boshqa tashkilotlardir.

Dastlab klasterlar faqat “bozorning ko'rinmas qo'li” (raqobat) tufayli, avvalo transmilliy kompaniyalarni zamonaviylashtirishda tashkil etilgan bo'lsa, keyingi vaqtda ko'pgina mamlakatlarning hukumatlari bu jarayonga sezilarli darajada ta'sir etgani xolda ularga yordam bermoqdalar. Klaster tashabbusi – klasterni yaratish va rivojlantirishning boshqariladigan jarayoni hisoblanadi. Klaster siyosati davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan klaster va klaster tashabbuslari o'sishini rag'batlantirish jarayonidir. Klaster strategiyasini amalga qo'llash asosida milliy va mintaqaviy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish g'oyasi yotadi va uning quyidagi ustuvor jihatlari borligini ochib beradi: korxonalar, firmalar uchun ta'minotchilarga malakaviy hodimlarga, axborotlarga, xizmat va ta'lim markazlariga to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishlar sababli mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga imkoniyatlar yaratiladi; klasterlashgan mintaqalar korxonalarida mehnat unumdorligi 1,5 baravargacha, ish haqqi 30% gacha o'z tasdig'in topgan; ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlari yangi ilmiy uslubiy ishlanmalarni yaratishi va ularni qisqa muddatda sinovdan o'tkazib ishlab chiqarishga joriy etish uchun shart-sharoitlar mavjud bo'ladi; ishlab chiqarish ilmiy

izlanishlardagi xodimlar va mutaxassislar mehnatlarini ko'proq rag'batlantirishga va yangi tovarlarni yaratishga imtiyozli sharoitlar bo'ladi.

Klasterlarning iqtisodiy-ijtimoiy samaradorligi, ular ishtirokchilari yo'nalishlari bo'yicha taqsimlanadi: – boshqa tarmoqlardan keladigan yangi ishlab chiqaruvchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirib va yangi strategiyalarni ta'minlab, rivojlanish jarayonini tezlashtiradi; – o'zaro erkin axborot almashinuvi yuzaga keladi, yangiliklar iste'molchi va mahsulot etkazib beruvchilarning kanallari bo'yicha tez tarqaladi; – klaster ichidagi o'zaro aloqalar raqobatda yangi imkoniyatlar paydo bo'lishiga olib keladi; – inson kapitali, ilmiy g'oyalari rivojlanishi va ishlab chiqarishga joriy etilishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

Ilmiy izlanishlar natijasi iqtisodiyot tarmoqlarida klasterlashtirish bilan bog'liq jarayonlar davlat va xo'jalik organlari, mos yetakchi fan va oliy ta'lim muassasalari hamda biznes jamoatchiligi jamoaviy uyg'unlashuvi bilan masalalarga kompleks yondashuvda shakllantirilishi maqsadli ekanligini ko'rsatdi. Chunki ushbu faoliyatda paydo bo'ladigan hududiy, tarmoq yoki uning ayrim sohasiga xos nazariy, uslubiy va amaliy muammolar "inson kapitali", ya'ni insonlarda jamlangan qobiliyat, malaka va maqsadlar zahirasidan soha va sohalararo ichki, tashqi integratsiyalashuvning kuchayishi bilan paydo bo'lgan innovatsion muhitda "ilm orqali bilim" tamoyili qonuniyatiga ko'ra kontsentratsiyalashgan bilimlardan o'z o'rnida foydalanish bilan tasdig'ini topadi.

Mamlakatimizda klasterlar bilan bog'liq ilmiy izlanishlar boshlanishi 2000 yillarga to'g'ri keladi, bu boradagi ilmiy-amaliy ishlar esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, yetakchi tarmoqlarni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish asosida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish borasida barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar olib borish bilan boshlandi.

O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishariga bag'ishlangan bandida "Tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va difersifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish, erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarni tashkil etish, amaldagi zonalarning samaradorligini oshirish, klasterlar faoliyatini tashkil etish, xizmatlar ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlar roli va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlarning tuzilmasini eng avvalo xizmatlarning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirish, logistika va yo'l-transport infratuzilmasini yanada rivojlantirish, iqtisodiyot, ijtimoiy sohaga, boshqarish tizimiga raqamlashtirish usullarini joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni saqlash, transportirovka qilish va sotish, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlarni ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish" kabi vazifalar keltirilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, yangi O'zbekistonni yaratish, iqtisodiyotimizning sifat jihatdan yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilma tarmoqlarini yuksak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liqdir. O'zbekistonda oxirgi yillarda logistikani, klasterlarni, innovatsion faoliyatni, raqamlashtirishni shiddat bilan rivojlantirish masalalari davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Bu

esa o'z o'rnida raqamlashtirish mamlakatimiz iqtisodiyoti raqobatbardoshligini rivojlantirish, inson taraqqiyoti darajasini oshirish, yoshlarni ish bilan bandligini taminlash, mehnat unumdorligini o'stirishdagi hissasi to'g'risida xulosa chiqarish uchun O'zbekistonning raqamli rivojlanishi bo'yicha to'la miqyosli uzoq muddatga ega bo'lgan strategiyali davlat innovasion siyosatini rivojlantirishni va iqtisodiyotimizni raqamlashtirishni taqozo etmoqda.

Davlat ko'magi va qo'llab-quvvatlashning tanlab olingan usullari klaster infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan umumiy tadbirlarga yo'l ochmoqda. Klasterlar uchun maxsus infratuzilmaning mavjudligi, shu jumladan, biznes sohasidagi hamkorlik kanallarining ma'lum bir sanoat yo'nalishi klasteri ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus tayyorlangan xodimlar guruhi raqobatdoshlikning asosiy omili hisoblanadi. Geografik jihatdan klasterlar alohida ishlab chiqarish zonalarini (mikroklasterlar), hududlar jihatdan joylashgan bo'lishi mumkin; ba'zi hollarda transchegaraviy klasterlar rivojlanib boradi (masalan, Finlyandiyaning qog'oz va yog'ochni qayta ishlash klasteri, Rossiyadagi chegara daraxtlarni kesish sanoatini kabilar bunga yaqqol misob bo'la oladi). Geografik yaqinlik ma'lum darajada ushbu mavhum bilimlar almashinuvini yengillashtiradi.

Xozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlari turli tarmoqlarida klasterlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Klasterlar turlarini samarali rivojlantirish zamon talabidir.

Transport-logistika klasterlari - bu infratuzilma va tovarlarni va yo'lovchilarni saqlash, eskort qilish va yetkazib berishga ixtisoslashgan kompaniyalar, dengiz, daryo, quruqlik, havo transporti, logistika majmualari va boshqalarga ixtisoslashgan kompaniyalar majmuasidir va tranzit muhim bo'lgan mintaqalarda rivojlanmoqda. Transport-logistika klasterining o'ziga xos xususiyati shundaki, u boshqa klasterlardan farqli o'laroq, bu yerda moddiy ishlab chiqarish sohasiga ustuvor ahamiyat beriladi. Bu xizmatlarning klasteri bo'lib, uni shakllantirishda muayyan qiyinchiliklar kelib chiqadi, Shunga qaramay, turli xil biznes yo'nalishlarini integratsiyalashgan zamonaviy sharoitda qayta ishlab chiqish va moddiy oqimlarni boshidan oxirigacha samarali boshqarish zarurligi, transport-logistika klasterlarini yaratish davr talabidir.

Turistik klaster- bu hududning bir yoki bir nechta hududlarida yaratilgan va joylashgan turistik va rekreatsion maxsus iqtisodiy zonalar majmui. Maqsad-turistik klasterni yaratishsinergetik ta'sir orqali turizm bozorida hududning raqobatbardoshligini oshirish va shu jumladan: - klaster tizimiga kiritilgan korxonalar va tashkilotlar samaradorligini oshirish - innovatsiyani rag'batlantirish - yangi yo'nalishlarning rivojlanishini rag'batlantirish. Turistik (yoki turistik-rekreatsion) klasterni yaratish aslida hududning joylashishini belgilaydi va mintaqa qiyofasining shakllanishiga ta'sir qiladi.

Agrosanoat klasteri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish, atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida geografik jihatdan bir mintaqada to'plangan turli xil sanoat tashkilotlarining ixtiyoriy va norasmiy birlashmasiga nisbatan ishlatiladigan termin hisoblanadi. Qiymat zanjiri, jonlantirish qishloq joylari, nafaqat mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, investorlar uchun yanada manfaatli soha bo'lib, mamlakat aholisi sog'lig'ini saqlash uchun ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish ular maqsadi hisoblanadi. So'nggi ikki yil ichida paxtachilik to'qimachilik klasterlariga ajratilgan yer maydoni ushbu ekin uchun ajratilgan qishloq xo'jaligi yerlarining 52 foizini tashkil etdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar orasida klaster tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohotlar uchun asosiy vazifalarni hal etish, jumladan, klaster tizimida innovatsion faoliyatdan samarali foydalanish taqozo etiladi. Buning uchun mamlakatimiz qisqa muddatda klaster tizimini rivojlantirishning innovatsion yo'lini zamon talablariga javob beradigan darajaga etkazishi lozim. Ayniqsa, yaratilayotgan yarim tayyor mahsulotlarni aynan shu erning o'zida klaster tizimi orqali tayyor mahsulot holiga keltirgan holda, uni jahon bozoriga olib chiqish rivojlanayotgan mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori, // Xalq so'zi, 2018 yil 8 may, 92- son.
2. Pokrovskaya O.D. (2014) Features of foreign experience in cluster creation in transport logistics / O.D. Pokrovskaya // Scientific problems of transport in Siberia and the Far East. № 4. - P. 39-42.
3. Prokofiev T.A., Kashpurov O.V. (2013) A cluster approach to managing the development of logistics infrastructure for the Europe-Asia international transport corridors. // Transport bulletin - 6/2013.
4. Titov A.V., Volinskiy I.A. (2015) Features of the creation of transport and logistics clusters in Europe. Bulletin of the Astrakhan State Technical University. Ser.: Marine Engineering and Technology. № 4. S. 103-108.
5. www.stat.uz